



ERKIN A'ZAMNING BADIY MAHORATI "TA'ZIYA" HIKOYASI TIMSOLIDA

Otaboyeva Dilnoza

Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi

Yusupova Shahnoza Oybek qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, Erkin A'zamning hikoyalarida katta ijtimoiy voqeliki, uslubiy xususiyatlari, persanajlarning xarakteri qahramonlarning ichki kechinmalari shuningdek sotsial realizm va uning ta'siri kabi muammolar bayon etilgan. "Shovqin", "Jannat o'zi qaydadir", "Ta'ziya" kabi hikoyalarining qahramonlari, ularning turmush tarzi va ichki his-tuyg'ulari aksi misollar bilan ko'rsatilgan.*

Annotation: *In this article, Erkin Azam's stories show the great social reality, era and human problems, stylistic features, characters' inner experiences, social realism and its influence.*

Аннотация: *В этой статье рассказы Эркина Азама показывают великую социальную реальность, эпоху и проблемы человечества, стилистические особенности, внутренние переживания героев, соцреализм и его влияние.*

Kalit so'zlar: *Ta'ziya marosimi, sotsializm, persanaj xarakteri, qahramon, yechim, ijtimoiy muhit, marksist.*

Keywords: *Condolence ceremony, socialism, character, hero, solution, social environment, Marxist.*



Ключевые слова: Церемония соболезнования, социализм, характер, герой, решение, социальная среда, марксист.

XX asrning 70-yillarida adabiyot maydoniga kirib kelgan davr, tanqidchi, nosir, kinossenarist, publitsist, kinodramaturg, muharrir. Surxon vohasi adabiyotining yorqin vakillaridan biri Erkin A'zamdir. O'zbek nosirlari orasida Erkin A'zam ijodi alohida ajralib turadi, adibning ijodiy faoliyati benihoyat rang-barang. Chunki ijodkor o'zining nosir, dramaturg, publitsist, kinodramaturg, muharrir sifatidagi qirralarini allaqachon ko'rsatib ulgurgan. Adib adabiyot maydoniga dastlab hikoyalari bilan kirib keldi, ilk yozgan hikoyalari maktab davridayoq matbuot yuzini ko'rdi. Birinchi kitobi esa 1977-yilda "Chiroqlari o'chmagan kecha" nomi bilan chop bo'lgan hikoyalar to'plamidir. Muallif shundan keyin "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob", "Olam yam-yashil", "Bayramdan boshqa kunlar", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Kechikayotgan odam", "Guliguli", "Ertak bilan xayrlashuv", "Jannat o'zi qaydadir", "Shovqin" kabi hikoya, qissa, drama va ramon kabi janrlardagi kitoblari bilan adabiyot maydonida o'rnini mustahkamlab kitobxonlarning qalbidan joy olib kelmoqda. Adibning sho'ro davrida yaratilgan asarlari bugun ham eskirmagan. Uning asarlari mustahkam badiiyati, umuminsoniy g'oyalari bugun ham aziz va ardoqli. Erkin A'zam bir qator qissalarida "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpaklar mamlakati", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Guli-guli", "Zabarjad", "Farishta", "Suv yoqalab", "Shovqin" da yangicha badiiy shartlilik vositalaridan bag'oyat mohirlik bilan foydalanadi.

Adibning "Jannat o'zi qaydadir" asari haqida ham so'z olib borar ekanmiz bu borada filologiya fanlari doktori Umarali Normatov shunday fikrlarni bildiradi: "Kitobga kirgan asarlarning hammasi ayni kunlarimiz, shu kundagi odamlarning - zamondoshlarning qismati, dardi dunyosi, ularni qiynayotgan hayot, turmush muammolari ustida bahs etadi, bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tish davri zamondoshlar jamiki ziddiyatlari va og'riqlari bilan ko'z oldingizda baralla



gavdalanadi"[3;4 bet].Xususan bu qahramonlarga ism tanlashdan tortib, voqealarni bayon etish, chapani, qaysar, o'jar xarakterli kishilar obrazini bosh qahramon sifatida yaratishda ko'rinadi".[1;304 bet].

So'nggi yillarda Erkin A'zam ijodini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Adib ilk ijod namunalari bilanoq ilmiy va adabiy jamoatchilik e'tiborini qozongan. Uning ilk ijodiga U.Normatov, N.Xudoyberganov, N.Shukurov, O.Tog'ayev, N.Vladimirova, R.Otayev, H.Boltaboyev, I.Hasanovlar munosabat bildirganlar. Ayniqsa, mustaqillik yillariga kelib, adib ijodiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bordi. Xususan, A.Rasulov, S.To'laganova, M.Qo'chqorova, M.Sheraliyeva, F.Rajabova S.Qurbonovlarning tadqiqotlarini alohida tilga olib o'tish lozim. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Obidjon Shofiyev E.A'zamning nasribadiiyati,jumladan,kinoya va obraz masalalarini monografik planda maxsus tadbqiq qilib PhD dissertatsiyasini yoqlagan, monografiya nashr etgan.[2;129 bet].

Serqirra ijodkorimiz Erkin A'zamning "Ta'ziya" hikoyasiga bir nazar tashlasak.Ijodkor bu asari haqida shunday deydi:"Ushbu hikoyaning dastlabki nomi "Do'ppi"edi.Shunday she'ri borligini eslabmi,uni Muhammad Yusufga bag'ishlamoqchi bo'ldim.Asarning sarlavhasi o'zgargach esa,shoir nomi bilan yonma-yon turishi xunukroq tuyulib fikrimdan qaytdim.Ammo,bugun bu hikoyani suyuqli inimning unutilmas xotirasiga bag'ishlamoqdaman,"-deydi muallif.[4;1-bet].

Bu hikoyada shahardan qishlog'iga borgan qahramonimizning ya'ni(Adibning o'zi) otasi bilan qoshlog'idagi ta'ziya bo'lgan xonadonlarga duoyi fotiha qilish uchun yo'lga chiqadi.Otasi eng uzoq joy Safarovdan boshlaymiz va yo'l yo'lakay Safarov bir vaqtlar Salim Qaror nomi orqali tanilgan kishini esga olishadi.U sho'ro hukumatining xizmatkori,dafn marosimlarini ado etishda tish-tirnog'i bilan qattiq qarshilik qilgan personaj.Adib ya'ni qahramonimiz o'qishdan o'zi yashayotgan



tumanga amaliyotga kelganida shu Safarovning qo'li ostida ish boshlaydi. Shu kunlarni qahramonimiz otasi bilan birgalikda eslashadi: "...Tuman markazidan o'tib olmazorga qayrilayotganimizda otam gapirib qoldilar: -" Shoirimiz bizni bir boplab qo'lga tushurgan-da"deb yurardi rahmatli. Nimaligini aytmasdi. O'sha voqeani elas-elas eslab so'rayman: -Ota, enasini janozasiz ko'mdirgan u, dedingiz boya. Shu odam namoz-pamoz o'qirdimi o'zi? -O'qigan bo'lsa o'qigandir, birov ko'rgan emas. Dafn ma'rakalarga qatnashardi-yu, ammo janoza payti chetga chiqib turar edi. Nima bo'lgan edi o'sha vaqtda?

-E, esda yo'q... Esda bor. Salim Qaror kechki navbatchilikda qolganida qarashib yurgan kunlarim edi. Ustozim, Salim Qaror, sharpani sezib, u dovdirab yerdan nimanidir yig'ishtirib, stoli tagiga otib yubordi. Joynamozmi? Keyin belini ushlaganicha inqillab o'rnidan turdi-da, stol ustida yotgan narsani kafti bilan bosdi va sath bo'ylab surib yubordi, bilintirmay sekingina cho'ntagiga soldi. Qizil narsa, hujjatga o'xshaydi..."

Ushbu hikoya Erkin A'zamning 2001-yilda nashr etilgan "Pakananing oshiq ko'ngli" deb nomlangan hikoyalar to'plamidan o'rin olgan ushbu "Ta'ziya" hikoyasida dinni tan olmaydigan o'zbek marksistining ahvolini ko'ring. U eshikni yopib, hammadan berkinib namoz o'qiydi. Darhaqiqat, u Xudoni tan oladi, undan qo'rqadi. Ammo o'zi berilib, ruju qo'ygan sho'ro hukumati Xudoni tan olmaydi. Salimov ya'ni Salim Qaror bu ikkalasidan ham voz kecha olmaydi. Xudoga ishonish unga hamdlar keltirish, shukur qilish sut bilan o'tgan e'tiqod bo'lsa, keyingisi esa zulm va zo'ravonlik bilan miyasiga singdirilgan marksistik partiya, sotsializm g'oyasidir. U ikkisini ham rad qilishdan qo'rqadi. Birinchisidan voz kechsa Xudo qahriga uchrashdan qo'rqadi. Chunki, u Xudodan qalbiga osudalik, yengillik so'raydi. Ikkinchi qo'rquv nimaligini eslasa qo'rquv uni dahshatga soladi. Yurtimizning qaro kir kunlarida yashab o'tgan insonlar xalqimiz orasida juda katta ko'pchilikni tashkil qilar edi. Shular jumlasidan, bizning



jadidlarimiz ham o'sha vaqtlar shunday vaziyatga tushganlar. Ana shunday fojialarni Erkin A'zam bir qator asarlarida mahorat bilan ochib beradi. Asarni tahlil qilar ekanmiz, Erkin A'zamning til boyligi alohida e'tiborga tahsinlidir. Ushbu asarda so'zlarning semantik-struktur jihatdan milliy urf-odatlar va marosimlarning inson ruhiyatiga ta'sirini ko'rsatib beradi. Adib asarlarida kecha, bugun va o'z xarakterdagi, turli xil sharoitlarda yashaydigan, ruhiyati har xil, turli bo'lgan insonlar taqdiri, ijod va jamiyat haqidagi qarashlarini ifodalab beradi. Umuman olganda "Ta'ziya" asari Erkin A'zamning badiiy mahorati va inson ruhiyatini chuqur anglashni namoyish etadi. Bu asar o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi va yuqori baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin A'zam badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plami. - T.: Turon zamin ziyo, 2014. 304b.
2. "Jahon adabiyoti", 2016 yil, N12, 129-b
3. Normatov U. Yangi asr odamlari // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2009 -yil 22-son. 4-bet
4. "O'zbek adiblari" kitobida, 1-bet